

Parkentdan XVI asrning oxiri – XVII asrning boshlariga oid xazina topildi

Toshkent viloyati, Parkent tumani, “Xo’ja” mahallasi, Hunarmand ko’chasi 47-uyda yashovchi Nasiba Begmatova 2022-yilning 16-sentyabr kuni o’z uyining hovlisida o’ra qazdirayotganda ko’karib zanglab ketgan mis tangalar xazinasini topildi va bu haqida mutaxassislariga xabar bildirishgan.

Xabarga binoan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi Dilmurod Normurodov va Madaniy meros agentligi bosh arxeologi, Arxeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtirish va arxeologiya ashyolari davlat katalogini yuritish boshqarmasi boshlig’i Alisher Yarqulovlar hamda tangalar mahalla raisi, mahalla proflaktika noziri, uy egalari va arxeolog guvohligida sanoqdan o’tkazilib ularning soni 939 ta ekanligi aniqlandi. Ular o’rganish va davlatga topshirish uchun olindi.





Mis tangalar topilgan joyning o'zida ko'zdan kechirilib, ularning diametri 115 santimetr bo'lgan o'raning yer sathidan 40-50 santimetr chuqurligida, bir joyda to'plangan holda topilganligi, tangalar topilgan joydagi tuproq orasidan o'lchami 25x25x5 santimetr bo'lgan pishiq g'isht bo'laki, moviy rangda sirlangan va sirsiz idishlarning mayda parchalari saqlanganligi aniqlandi.

Tangalarni dastlabki o'rganish uzoq vaqtlar davomida yer ostida, nam tuproqqa qorishib chiriganligi sababli ularning har ikkala tomonining yuzalari tekislanib ketganligini ko'rsatdi. Tangalarning ayrimlariga ishlov berilib, tozalanishi ularda doira shakldagi halqa va uning ichiga arab harflaridagi yozuv bitilganligi ma'lum bo'ldi. Tangalarga zarb sayoz urilganligi ham ulardagi yozuvlar yaxshi ko'rinmasligiga sabab bo'ldi. Tozalangan tangalardan ayrimlarining bir tomonida "zarb Toshkent ()" yozuvigina o'qildi. Ikkinchi tomonini o'qishning imkoni bo'lmadi. Ammo, avvallari aniqlangan, aynan ularga o'xshash tangalar bilan qiyosiy tahlil yangi topilgan xazinaning XVI asr oxiri - XVII asr boshlariga tegishli ekanligini ko'rsatdi. Ular topilgan joydan aniqlangan ashvoviy dalillar - 25x25x5 santimetr hajmdagi pishgan g'ishtlar, moviy rangdagi sirlangan va sirsiz sopol idish siniqlari ham yuqorida ko'rsatilgan davrda ishlab chiqarilgan.

O'ylaymizki, keyingi o'rganishlarda tangalardagi yozuvlar to'liq o'qilib, tanganing zarb qilingan joyi va vaqti aniqlanadi. Mazkur tangalar kelajakda O'zbekiston muzeylari ko'rgazmalaridan munosib joy oladi va ularni ilmiy o'rganish tariximizning ayrim jihatlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Shu sababli bu xazinani topganlarga, uy egalriga va xabardor qilganlarga cheksiz minnatdorlik bildiramiz.

**Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi,
Temuriylar tarixi davlat muzeyi
katta ilmiy xodimi Dilmurod Normurodov.**